

TARJIMA JARAYONIDA YUZAGA KELADIGAN MADANIY MUAMMOLAR VA ULARGA YECHIMLAR

Zoirova Azizabonu Anvar qizi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

Tarjimonlik fakulteti 1- bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15227247>

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarjima jarayonida uchraydigan madaniy muammolar tahlil qilinadi. Turli madaniyatlar o'rtasidagi tafovutlar tarjimada semantik noaniqliklar, noto'g'ri talqinlar va madaniy mos kelmaslik holatlarini yuzaga keltirishi mumkin. Maqolada madaniy anglashilmovchilik jarayonlari, diniy qadriyatlar, hazil va kinoya, ijtimoiy rollar, tarixiy-geografik kontekst va stilistik ifodalar kabi madaniy jihatlar tarjima jarayonida qanday muammolarni keltirib chiqarishi ochib beriladi. Ularning tarjima jarayonida yuzaga keladigan jiddiy, salbiy jihatlari va ta'sirlari haqida aytib o'tiladi. Shuningdek, bu muammolarning oldini olish bo'yicha tarjimonlar foydalanishi mumkin bo'lgan samarali usullar haqida ham ma'lumot beriladi. O'z ichiga yechim va choralarni qamrab olgan maqola tarjimonlar, tilshunoslar va madaniyatshunoslar uchun foydali ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Annotation: Analysis of cultural issues in the process of working on a translation. Different cultures have their own differences that can lead to semantic ambiguities, misinterpretations, and cultural inconsistencies in translation. The article reveals how cultural processes such as cultural misunderstandings, religious values, humor and irony, social roles, historical-geographical context, and stylistic expressions develop. Their seriousness, preservation, and impact on translation failure are discussed. Information is also provided on effective methods that can be used by translators to prevent these problems. The article, which received its help and advice, serves as a useful scientific and practical basis for translators, linguists, and cultural studies scholars.

Аннотация: В статье анализируются культурные проблемы, возникающие в процессе перевода. Различия между разными культурами могут привести к семантической двусмысленности, неправильным толкованиям и культурной несовместимости при переводе. В статье показано, как культурные аспекты, такие как процессы культурного непонимания, религиозные ценности, юмор и ирония, социальные роли, историко-географический контекст и стилистические выражения, создают проблемы в процессе перевода. Обсуждаются серьезные негативные аспекты и последствия, возникающие в процессе перевода. В нем также содержится информация об эффективных методах, которые переводчики могут использовать для предотвращения этих проблем. Статья, включающая решения и меры, служит полезной научной и практической основой для переводчиков, лингвистов и культурологов.

Kalit so'zlar: Tarjima, madaniyat, stereotip, kontekst, adaptatsiya, transliteratsiya, transpozitsiya, tafovut, yechim.

Keywords: Translation, culture, stereotype, context, adaptation, transliteration, transposition, difference, solution.

Ключевые слова: Перевод, культура, стереотип, контекст, адаптация, транслитерация, транспозиция, различие, решение. iborasini ruscha tilidan tarjima qilish.

Tarjima – bu shunchaki bir tildan ikkinchisiga tarjima qilish emas, balki, madaniyatlar, davlatlararo ko'prik qurish jarayonidir. Har bir til o'ziga xos madaniyat, tarix va mentalitetni aks ettiradi. Shu boisdan ham tarjimon faqat so'zlarni emas, balki, ular ortidagi madaniy mazmun – mohiyatni ham to'laqonli ravishda anglay olishi, tushunishi, tinlovchi va so'zlovchi o'rtasida yoxud bir aloqa vositasi, ko'prik vazifasini bajarishi kerak. Ayniqsa, ikki xil madaniyat vakillari o'rtasidagi aloqa jarayonida madaniy tafovutlar, turlicha qarashlar kelib chiqishi tabiiy hol, albatta. Tarjimani bir so'z bilan aytda transformatsiya jarayoni deya olish mumkin. Umuman olib gapiradigan bo'lsak, tarjima qilingan har qanday turdagi matn, nutq yoki asar o'quvchiga asl holidagi mazmunni yetkaza olishi kerak, Mashhur amerikalik tilshunos Yevgeniy Nida ta'kidlaganidek, "Yaxshi tarjimaning ta'rifi qabul qiluvchining tarjima qilingan xabarga bo'lgan munosabatiga bog'liq va bu ma'lumotni asl nusxada berilganda qabul qiluvchilarning xabarga qanday javob bergani bilan taqqoslash lozim".[1] Rossiyalik olim Yakobsonning fikricha, tarjima shunchaki shakllarning boshqa tilga o'zgarishi emas, balki axborot almashtirish bo'lib, tarjimonning vazifasi qabul qilingan ma'lumotni belgilangan tildagi shakllarga o'zgartirishdir. "Shotlandiyalik tilshunos Ketford tarjima jarayonida ma'no ekvivalentligi bo'lmasligini ta'kidlab, faqat shakl jihatdan ekvivalentlik borligini tushuntiradi".[2] Tarjimaning asl maqsadi sifatida turli mamlakatlar o'rtasidagi madaniyatlarni bog'lab turuvchi ko'prik vazifasini ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Mashhur amerikalik tarjima nazariyotchisi Yevgeniy Nida tarjimaga quyidagicha ta'rif bergan: "Tarjima, birinchidan, ma'no jihatdan, ikkinchidan, uslub jihatdan qabul qiluvchi tilni manba tilning sof ekvivalenti sifatida takrorlashdan iborat. Biroq, tarjima qilinayotgan tilda eng yaqin o'xshash ekvivalentning paydo bo'lishiga madaniy farqlar turli darajada ta'sir qiladi"[3]. Madaniy kontekstning o'zi nimaligiga to'xtaladigan bo'lsak, bu til orqali ifodalangan g'oya, jumla yoki ma'lum bir asarning qayerda, qanday sharoitda, muhitda madaniyatda kelib chiqqanini ham aytib o'tishimiz mumkin. Masalan, ingliz tilida "Thanksgiving" degan so'z bor. Uni o'zbek tiliga oddiygina "rahmat aytish kuni" deb tarjima qilish mumkin, lekin bu kun AQSh madaniyatida ancha chuqur ma'noga ega bo'lgan bayramdir. Uni to'g'ri tushunish uchun AQSh tarixini va urf-odatlarini bilish zarur va tarjima jarayonida o'quvchiga aniq va tushunarli yetkazib berish maqsadida bu bayram haqida qo'shimcha ma'lumotlar aytib o'tish, masalan. Qanday holda, qaysi paytda o'tkazilishi, urf-odatlar haqida tushuncha berib o'tishi tarjima o'quvchisi uchun qulaylik va kontekstni to'g'ri anglashga yordam beradi. Madaniy muammolar tarjima jarayonida kelib chiqishi tabiiy, albatta, bunga sababa qilib har bir davlatning o'ziga xos an'ana, traditsiyasi borligini dalil sifatida keltira olamiz. Tarjima jarayonida yuzaga keladigan madaniy muammolar va ularga yechimlar tilshunoslik, sotsiologiya va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan muhim mavzulardan biridir. Quyida asosiy madaniy muammolar va ularni hal qilish yo'llari keltirilgan

Madaniy muammolar:

1. Madaniy kontekstning yo'qolishi:

Har bir til o'ziga xos madaniyatni aks ettiradi. Tarjimada bu kontekst yo'qolishi mumkin. Masalan, hazil-mutoyiba, kinoya yoki iboralar boshqa tilga o'girilganda ma'nosiz yoki noto'g'ri tushunilishi mumkin.

2. Iboraviy tarjima muammolari: Idiomlar, maqollar, atamalar bevosita tarjima qilinsa, o'z mazmunini yo'qotadi. Masalan, ingliz tilidagi "It's raining cats and dogs" iborasi so'zma-so'z tarjima qilinganda tushunarsiz bo'ladi.

3. Diniy yoki ijtimoiy sezgirlik: Ba'zi madaniyatlarda muayyan so'zlar, mavzular yoki tasvirlar taqiqlangan yoki noqulay bo'lishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, reklama, adabiyot yoki kino tarjimalarida muhim hisoblanadi.

4. Teskari stereotip yoki noto'g'ri madaniy aks ettirish:

Tarjimon asl madaniyatni noto'g'ri talqin qilishi yoki stereotiplarga tayanib tarjima qilishi mumkin. stereotip atamasi ma'lum bir toifadagi odamlarga nisbatan haddan tashqari umumlashtirilgan e'tiqod sifatida ta'riflanadi.[4] Stereotiplar umumlashtiriladi, chunki ma'lum bir stereotip toifadagi har bir shaxsga alohida to'g'ri keladi.[5] Tez qaror qabul qilishda bunday umumlashtirish foydali bo'lishi mumkin bo'lsa-da, har bir shaxsga alohida-alohida qo'llanilsa, ular noto'g'ri bo'lish ehtimoli ham yo'q emas. Tarjimada stereotiplar qanday muammo tug'diradi? Tarjimon madaniyatni noto'g'ri aks ettirishi mumkin. Ayrim millat yoki guruhlarini kamitib yoki yomon tasvirlab qo'yish ehtimoli bo'ladi. Tarjima asarlarda stereotiplar saqlanib qolsa, ular kamsituvchi yoki haqoratli ko'rinishi mumkin.

Yechimlar:

1. Madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish:

Tarjimon faqat tillarni emas, balki tarjima qilinayotgan madaniyatlarni ham chuqur tushunishi kerak. Davlar madaniyatidan ham xabardor bo'lish kerak. Bu ustuvor

2. Adaptatsiya (moslashtirish):

Tarjimon matnni asl maqsadini saqlagan holda, yangi madaniyatga moslashtiradi.

Masalan, bolalar kitobidagi belgilar yoki ovqat nomlari lokal variantlarga o'zgartirilishi mumkin.

3. Kommentariyalar qo'shish:

Zarur hollarda, madaniy tushunchalarni tushuntirish uchun izoh yoki qavs ichidagi tarjimalar kiritiladi. Bu tushunish jarayonida qulaylik va aniqliklarni yuzaga keltiradi.

4. Mutaxassislar bilan maslahatlashish:

Diniy, huquqiy yoki texnik matnlar tarjimasida soha vakillari bilan ishlash muhim chunki bularning har biri o'ziga xos tushuncha, atamalarga ega.

5. Tarjima strategiyalarini mos tanlash:

Ekvivalentlik, transliteratsiya, transpozitsiya, adaptatsiya kabi usullardan maqsadga muvofiq tarzda foydalanish.

Madaniy muammolar turlari

1. Madaniy an'analar va qadriyatlar farqi

Har bir xalqning o'ziga xos urf-odatlar, qadriyatlari bor. Bu qadriyatlar tarjimada tushunmovchilikka sabab bo'lishi mumkin.

Misol: G'arb tillarida shaxsiy erkinlikka urg'u berilsa, Sharq tillarida jamiyat va oila qadriyatlari ustun turadi. Bunday farqlar noto'g'ri talqinlarga olib kelishi mumkin.

2. Realia (madaniy birliklar) muammosi

Realia – bu faqat ma'lum bir xalq yoki madaniyatga xos bo'lgan so'zlar yoki tushunchalar (masalan, "mahalla", "navro'z", "samovar").

Tarjimada bu so'zlarga muqobil topish qiyin bo'lishi mumkin.

3. Hazil va kinoya (ironiya)

Har bir madaniyatda hazilning turi, shakli va qabul qilinish darajasi turlicha.

Misol: Ingliz tilidagi "dry humor" (quruq hazil) yoki sarkazm o'zbek tiliga tarjima qilinganda asl mazmun yo'qolishi mumkin.

4. Diniy va mafkuraviy sezgirlik

Diniy atamalar yoki e'tiqodga oid iboralar ba'zi madaniyatlarda sezgir mavzu sanaladi.

Misol: "Inshaalloh" kabi diniy iboralar har doim to'g'ri tushunilavermaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tarjima jarayonida yuzaga keladigan madaniy muammolar – bu tillar orasidagi nafaqat lug'aviy, balki madaniy tafovutlardan kelib chiqadigan murakkabliklardir. Har bir til o'z madaniyati, urf-odatlarini va qadriyatlarini aks ettiradi, shuning uchun tarjimon nafaqat til bilimiga, balki madaniyatlararo sezgirlik va tushunchaga ham ega bo'lishi kerak. Realia, hazil, diniy iboralar va ijtimoiy tushunchalarning noto'g'ri tarjimasi matn mazmunini buzishi mumkin. Bunday muammolarning oldini olish uchun tarjimada moslashtirish, izohli tarjima, kontekstga e'tibor berish va madaniyatlararo bilimdan foydalanish zarur. Shundagina tarjima matni nafaqat so'zma-so'z, balki ma'naviy va madaniy jihatdan ham to'g'ri va ta'sirli bo'ladi. Tarjimon esa ikki til o'rtasida emas, balki ikki madaniyat o'rtasida vositachi bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Rajabov S. et al. Tasavvurli, umumiy-tasavvurli va raqamli-tasavvurli qoidalarini tahlil //Science and Education. - 2024. - T. 5. - №. 5. - C. 262-268.
2. Rajabov S. TASAVVURLI, UMUMIY-TASAVVURLI VA RAQAMLI-TASAVVURLI QOIDALARNI TAHLILI //Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari. - 2024. - T. 4. - №. 1. - C. 113-119
3. Абдуллаев М. ORGANIZATION OF WASTE PROCESSING IN SOLVING ENVIRONMENTAL PROBLEMS IN UZBEKISTAN //Nordic_Press. - 2024. -T. 1. - №. 0001.
4. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Maxsus:BookSources/978-1579580643>
5. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Maxsus:BookSources/978-1579580643>